

**QORAQALPOQ GUMANITAR FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/25.08.2021.Fil.137.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TURUMBETOVA AYGUL YUSUPBAYEVNA

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILARNING
O'QUV-BILUV MOTIVATSIYASINI MUSTAQIL ISHLAR VOSITASIDA
SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (qoraqalpoq tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Pedagogical Sciences**

Turumbetova Aygul Yusupbayevna

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning o'quv-biluv
motivatsiyasini mustaqil ishlar vositasida shakllantirish texnologiyasi..... 3

Турумбетова Айгул Юсупбаевна

Технология формирования учебно-познавательной мотивации учащихся
начальных классов на уроках чтения с помощью самостоятельной
работы..... 21

Turumbetova Aygul Yusupbayevna

Technology of forming educational and cognitive motivation of primary
school learners in reading lessons through independent work..... 41

E'LON QILINGAN ISHLAR RO'YXATI:

СПИСОК ОПУБЛИКОВАННЫХ РАБОТ:

LIST OF PUBLISHED WORKS:..... 46

**QORAQALPOQ GUMANITAR FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/25.08.2021.Fil.137.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TURUMBETOVA AYGUL YUSUPBAYEVNA

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILARNING
O'QUV-BILUV MOTIVATSIYASINI MUSTAQIL ISHLAR VOSITASIDA
SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (qoraqalpoq tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Ped7351 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.aknuk.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Matchanov Sapa Matchanovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yusupov Qonisbay Abilovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullaev Komiljon Abduganievich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:


Guliston davlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/25.08.2021.Fil.137.01-raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil «25» 11 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230100, Nukus shahri, A.Temur ko'chasi, 179 A-uy. Tel.: (99861) 222-85-47; faks: (99861) 222-85-47; e-mail: kk_gumanitar@mail.ru).


Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining Fundamental kutubxonasida tanishish mumkin. (25 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230100, Nukus shahri, A.Temur ko'chasi, 179 A-uy. Tel.: (99861) 222-85-47.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «07» 11 kuni tarqatildi.
(2025-yil «07» 11 dagi 13 -raqamli reyestr bayonnomasi).




A.I. Alniyazov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor


A.M. Bekimbetov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), katta ilmiy xodim


P.A. Najimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida yoshlarning ta'lim shaklini erkin tanlash, intellektual o'sishini ta'minlovchi o'quv-biliuv motivatsiyasini rivojlantirish, ijodiy xarakterdagi faoliyat turlarini tashkil etish tendensiyasi kuzatiladi. Ta'lim oluvchilarning individual perspektivasini yaratishda shaxsga yo'naltirilgan refleksiv qobiliyatlar, hayotiy ko'nikmalarni tarkib toptirish hamda o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim o'rin tutadi.

Dunyoda ta'lim oluvchilarning kreativ rivojlanish trayektoriyasini belgilash, selektiv hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'quv faoliyatini rag'batlantirish va motivlashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Kommunikativ, axborotlar bilan ishlash, shaxs sifatida o'zini o'zini rivojlantirish kompetensiyalarni faollashtiruvchi vositalarni tanlash, o'rganilayotgan muammoga tizimli yondashish, mantiqiy tafakkurni shakllantirishda o'quv fanlarining mazmuni qatori bilishga intilish yo'llarini takomillashtirishga doir mustaqil ishlarni tashkil etish mexanizmi tadqiq etilmoqda.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim mazmunini xalqaro baholash dasturlari talablariga moslashtirish, o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishga doir yangi davlat ta'lim standartlari, "Milliy o'quv dasturi", integrativ yondashuvga asoslangan darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar yaratilmoqda. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonda belgilangan "kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda kasb tanlash, kasbiy o'sishni mustaqil rejalashtirish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish"¹ vazifalari boshlang'ich ta'lim mazmunini ilg'or tajribalar asosida isloh qilish, o'quvchilarda kichik yoshidan bilim olishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishlarni rag'batlantirish, o'ziga bo'lgan ishonchni tarbiyalash strategiyalarni ishlab chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 11-maydagi PF-134-son "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish va targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2029 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сон Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги Фармони. <https://lex.uz/uz/docs/4312785>

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish jarayonlarini shakllantirish muammosi T.Niyazmetova, M.Mahmudova, S.Matchonov, B.Adizov, B.Makulova, A.Abdumannotov, R.Ibragimov, N.S.Jo‘rayev, Q.Husanboyeva, G.Najmiddinova, Sh.Samatova, K.Qosimova, U.Masharipova, Sh.Boltayeva, G.Berdaliyeva, H.Bakiyeva, A.Hamroyev, M.A.Asqarova, G.Mamatova, Sh.Sariyev, D.A.Muminova, I.R.Rahimova, F.Z.Xusanova; N.Yu.Xaitova, O.S.Usmonova kabi pedagog va metodistlarning tadqiqotlarida o‘quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, matn ustida ishlash, lug‘at boyligini o‘stirish, ijodiy faolligini takomillashtirish, adabiy-nazariy tushunchalar va kitobxonlik darajasini oshirish mavzulari doirasida o‘rganilgan. Qoraqalpog‘istonda boshlang‘ich sinflarda ona tili va adabiyot ta‘limini tashkil etish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining darslarda o‘zlashtirish imkoniyatlarini takomillashtirish, nutq o‘stirish muammolari N.Bekniyazova, B.Utemuratov, F.Pirniyazova, G.Z.Yusupova, G.Babasheva, O.Eshimbetov, A.A.Emberganova, R.Muratkamalovalarning ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari tomonidan boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish N.D.Moldovskaya, I.L.Garkunova, K.T.Golenkina, N.I.Politova, M.R.Lvov, A.N.Ragimov, L.I.Petre, T.G.Ramzayeva, M.P.Voyushinalar; kichik yoshdagi o‘quvchilarda o‘quv motivatsiyasini shakllantirish muammosi P.M.Yakobson A.K.Markova, M.V.Matyuxina, X.Xekxaufen, L.S.Vigotskiy kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Ta‘limning quyi bosqichlaridan bilimlarni tizimli ravishda o‘rganish, o‘quv-biluv motivlari, matn bilan ishlash masalalari B.Bloom, E.Chambers, M.Gregoriy, W.James, Popham, J.A.Dole, Jessica, Marinaccio, A.M.Lesgold, C.A.Perfetti kabi xorijlik olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika instituti ilmiy tadqiqot rejasining “Masofadan o‘qitish talimning integratsiyasi” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarning o‘quv-biluv motivatsiyasini mustaqil ishlar vositasida shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

ta‘lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan boshlang‘ich sinflar o‘qish darslarida o‘quvchilarning o‘quv-biluv motivatsiyasini mustaqil ishlar vositasida shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslarini aniqlashtirish;

boshlang‘ich sinflar o‘qish darslarida o‘quvchilarning o‘quv-biluv motivatsiyasini mustaqil ishlar vositasida shakllantirishning didaktik ta‘minotini takomillashtirish;

ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishga doir mustaqil ishlarni belgilash;

boshlang'ich sinflar o'qish darslarida o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini mustaqil ishlar vositasida shakllantirish metodikasini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini mustaqil ishlar vositasida shakllantirish jarayoni belgilangan bo'lib, tajriba-sinov ishlariga Qaraqalpoqiston Respublikasi Nukus shahridagi 25-, 34-; Qorao'zak tumanidagi 28-, 33-; Xorazm viloyoti Gurlan tumani 1, Navoiy viloyoti Kenimex tumani 36-son umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflaridan 480 nafar o'quvchi jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini. Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini mustaqil ishlar vositasida shakllantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda pedagogik kuzatuv, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, sotsiologik metod (so'rovnoma, suhbat), pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan boshlang'ich sinflar o'qish darslarida o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishning pedagogik (o'quv material mazmuni, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, baholash, o'qituvchi kompetentligi) va psixologik asoslari ichki (faoliyat jarayoni, ta'lim natijasiga qiziqish, o'z-o'zini rivojlantirishga odatlanish) va burch, majburiyat kabi tashqi motivlarning integral belgilarini o'zaro muvofiqlashtirish orqali aniqlashtirilgan;

boshlang'ich sinflar o'qish darslarida o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini mustaqil ishlar vositasida shakllantirishning didaktik ta'minoti o'quvchilarning analitik tafakkurini rivojlantirishga doir bilish, tushunish, qo'llash, analiz, sintez, yaratish kabi Blum taksonomiyasi darajalari, asar qahramonlarini tanqidiy baholashga oid o'quv tahlili elementlari, sharhlash, lug'at ustida ishlash, vizual assotsiatsiya singari matn ustida ishlash komponentlarining muhim jihatlarini birlashtirish asosida takomillashtirilgan;

ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishga doir sinfdan tashqari mashg'ulotlar mazmuni maktub yozish, loyiha ishi yaratish, intervyu olish, savol-topshiriqlar tuzish, adabiy sayohatlar uyushtirish kabi aqliy-irodaviy, jismoniy kuchlarni talab qiluvchi, adabiy bilimlarni egallash, muammoli vaziyatlarni hosil qilish, vazifaga ijodiy yondashishni talab qiladigan mustaqil ishlarni intensiv tashkil etish asosida takomillashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini mustaqil ishlar vositasida shakllantirish metodikasi yetti qadamli strategiya, muammoli ta'lim texnologiyasi, didaktik o'yinlar, integrativ yondashuv, 4 K modeli: kollobaratsiya, kommunikativlik, kreativlik, kritik (tanqidiy) fikrlash kabi tamoyillarini tizimli va faol qo'llash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablar boshlang'ich sinflarida o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyalarini mustaqil ishlar vositasida shakllantirishga doir didaktik talablar ishlab chiqilgan;

boshlang'ich sinflarida o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishga doir metodik ta'minot yaratilgan;

ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablar boshlang'ich sinflarida mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha metodik ko'rsatmalar ishlab chiqilgan;

tadqiqot natijalaridan oliy ta'limda boshlang'ich sinflarda "Ona tili o'qitish metodikasi", "Bolalar adabiyoti" fanlarining o'quv dasturlari mazmunini takomillashtirishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Amal qilingan yondashuv va tamoyillar, qo'llanilgan usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, muammo yuzasidan respublikamiz va xorijlik olimlarning g'oyalari, amaliyotchi o'qituvchilarning tajribalariga tayanilgani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati boshlang'ich sinflar o'qish darslarini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishga doir mustaqil ishlar o'quvchilarning yosh xususiyatlari doirasida tizimlashtirilgani, ta'limning quyi bosqichlaridan adabiyot o'qitishni uzviylikda integratsiyalab o'qitishga doir nazariy g'oyalar va metodik tavsiyalar ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida badiiy matn ustida ustida ishlashga yo'naltiruvchi ilg'or strategiyalar belgilangani, axloqiy-estetik tarbiyalashga doir metodlar hamda o'quv-biluv motivatsiyasi rivojiga doir mustaqil ishlarni qo'llashga doir amaliy tavsiyalar boshlang'ich sinflar "O'qish" darsliklari mazmunini takomillashtirishga, o'qish fanini adabiyot fani bilan integratsiyalab o'qitish sifatini oshirishga, oliy ta'limda mutaxassislik fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalari yaratishga, ixtisoslik fanlarini o'qitishga, malaka oshirish kurslari hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining amaliy faoliyatida qo'llash mumkinligi bilan belgilanadi

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini mustaqil ishlar vositasida shakllantirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan boshlang'ich sinflar o'qish darslarida o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishning pedagogik (o'quv materiali mazmuni, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, baholash, o'qituvchi kompetentligi) va psixologik asoslari ichki (faoliyat jarayoni, ta'lim natijasiga qiziqish, o'z-o'zini rivojlantirishga odatlanish) va burch, majburiyat kabi tashqi motivlarning integral belgilarini o'zaro muvofiqlashtirish orqali aniqlashtirishga doir tadqiqot ishi natijalaridan T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari

ilmiy tadqiqot instituti (Qori Niyoziy nomidagi TPMI)da bajarilgan PZ-2014-0829162612 – raqamli “VIII–IX sinflar ta’lim jarayonini ijtimoiy pedagogik loyihalashtirish metodikasini ishlab chiqish” nomli amaliy loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining 2024-yil 13-dekabrda 01/15-09/241-son ma’lumotnomasi). Natijada, boshlang‘ich sinflar o‘qish darslarida o‘quvchilarning o‘quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslarini o‘zaro muvofiqlashtirish orqali aniqlashtirishga erishilgan;

boshlang‘ich sinflar o‘qish darslarida o‘quvchilarning o‘quv-biluv motivatsiyasini mustaqil ishlar vositasida shakllantirishning didaktik ta’minoti o‘quvchilarning analitik tafakkurini rivojlantirishga doir bilish, tushunish, qo‘llash, analiz, sintez, yaratish kabi Blum taksonomiyasi darajalari, asar qahramonlarini tanqidiy baholashga oid o‘quv tahlili elementlari, sharhlash, lug‘at ustida ishlash, vizual assotsiatsiya singari matn ustida ishlash komponentlarining muhim jihatlarini birlashtirish asosida takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialida bajarilgan FZ-2016-09-08165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi loyihadagi foydalanildi (T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2024-yil 19-sentabrda № 359 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, boshlang‘ich sinflar o‘qish darslarida o‘quvchilarning analitik tafakkurini rivojlantirishga doir mustaqil ishlar vositasida o‘quv-biluv motivatsiyasini rivojlantirishning didaktik ta’minotini shakllantirishga oid taklif va tavsiyalardan foydalanilgan;

ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarning o‘quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishga doir sinfdan tashqari mashg‘ulotlar mazmuni maktub yozish, loyiha ishi yaratish, intervyu olish, savol-topshiriqlar tuzish, adabiy sayohatlar uyushtirish kabi aqliy-irodaviy, jismoniy kuchlarni talab qiluvchi, adabiy bilimlarni egallash, muammoli vaziyatlarni hosil qilish, vazifaga ijodiy yondashishni talab qiladigan mustaqil ishlarni intensiv tashkil etishda T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialida bajarilgan XT-F2-011-raqamli “Qoraqalpoq tilini o‘qitishni takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslarini kompleks tadqiq etish va kontseptsiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi loyihadagi foydalanildi (T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2024-yil 19-sentabrda № 359 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-biluv motivatsiyasini mustaqil ishlar vositasida shakllantirish texnologiyasini boyitishga xizmat qilgan.

boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarning o‘quv-biluv motivatsiyasini mustaqil ishlar vositasida shakllantirish metodikasi yetti qadamli strategiya, muammoli ta’lim texnologiyasi, didaktik o‘yinlar, integrativ yondashuv, 4 K modeli: kollobaratsiya, kommunikativlik, kreativlik, kritik (tanqidiy) fikrlash kabi tamoyillarini tizimli va faol qo‘llash asosida taklif va tavsiyalardan «Ana tili - oqiraw sawatligi ham oqitiraw metodikasi» darsligi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrda

429-sonli buyrig'iga asosan o'quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi). Natijada, boshlang'ich sinf o'qish darslari hamda sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishning dasturiy ta'minotini takomillashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilangani. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta darslik (yakka mualliflikda), 1 ta monografiya (hammualliflikda), O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 13 ta, 7 tasi respublika, 6 tasi xorijiy jurnalda maqola nashr ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, tavsiya va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 123 sahifani tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“O'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini mustaqil ishlar vositasida shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari”** deb nomlangan bo'lib, unda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-biluv motivatsiyasini mustaqil ishlar vositasida shakllantirish metodik muammo sifatida o'rganilgan; boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-biluv motivatsiyasini mustaqil ishlar vositasida shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari tahlilga tortilgan; boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-biluv motivatsiyasini mustaqil ishlar vositasida shakllantirishning mavjud holati yoritilgan.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim sohasidagi dolzarb muammolar aksariyat o'quvchilarda bilim olish motivlarining yo'qligi bilan tavsiflanadi. Shu bois ularda o'zlashtirish darajasidagi asosiy ko'rsatkichlar pasayishiga olib keladi. Turli darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun o'quv faoliyati har xil ma'noga ega. Muayyan holatda boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun o'quv-biluv motivatsiyasi va mustaqil ishlar mohiyatini aniqlash o'qituvchining pedagogik ta'sir choralarini belgilashida hal qiluvchi o'rin tutadi.

Shaxsning motivatsion tizimi – ehtiyojlar, dolzarb motivlar, qiziqishlar, intilishlar, e'tiqodlar, maqsadlar, munosabatlar, stereotiplar, me'yorlar, qadriyatlar kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan inson xatti-harakati asosida yotgan barcha harakatlantiruvchi kuchlarning yaxlit tizimidir. Uni quyidagicha tasniflash mumkin: a) ta'lim mazmuni; b) ta'lim motivlarining turlari; d) ta'lim maqsadi; e) motivlarning inson ruhiyatida aks etishi; f) motivatsiyasiga hissiy munosabat.

O'quv-biluv motivatsiyasi tahlilida motivlar guruhlarini tavsiflash bo'yicha yondashuvlarga tayanish kerak. Jumladan, birinchi tasnif varianti motivlarning kognitiv va ijtimoiy guruhini ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Kognitiv motivlar o'quv faoliyati mazmuni va uni amalga oshirish jarayoni bilan bog'liq. Ijtimoiy motivlar o'quvchining atrofida gilar bilan ijtimoiy o'zaro ta'sirining har xil turlari, jumladan, jamiyatga foydali bo'lish uchun bilim olish, o'z burchini bajarishga intilish, o'rganish zarurligini tushunish, mas'uliyat hissidan iborat.

O'quv-biluv motivatsiyasi ikkinchi variantiga motivlar va ta'lim faoliyati o'rtasidagi munosabatni tavsiflaydigan turi mansub. Muayyan faoliyatni rag'batlantiruvchi motivlar (o'rganish jarayoni) unga bevosita bog'liq bo'lmasa, ular bu faoliyatga nisbatan tashqi deyiladi. Agar bevosita ta'lim faoliyati bilan bog'liq bo'lsa, ular ichki motivlar deyiladi. O'quv-biluv motivlarini tasniflashning uchinchi versiyasi motivatsiyada muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik tendensiyasi mavjudligiga asoslanadi. Boshlang'ich maktab yoshida qanday motivlar ustunligi, o'quv faoliyati uchun ijobiy barqaror motivatsiyani shakllantirishga ta'sir qiluvchi asosiy omillar quyidagilardir:

- o'quv materialining mazmuni;
- tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish;
- ta'lim faoliyatining jamoaviy shakllari;
- o'quv faoliyatini baholash;
- o'qituvchining pedagogik faoliyati va uslubi.

Motivlar o'quvchi shaxsining nisbatan barqaror ko'rinishlari va atributlaridir. Masalan, ma'lum bir o'quvchida o'quv-biluv motivi bor deyilganda, u ko'p holatlarda kognitiv motivatsiyasini namoyon qiladi. Motivni o'z-o'zidan tushuntirib bo'lmaydi. Buni ruhiy hayotning umumiy tuzilishini tashkil etuvchi omillar – obrazlar, munosabatlar, shaxsiy harakatlar tizimida tushunish mumkin. Uning roli xulq-atvorga turtki berish va maqsadga yo'naltirishdir. Ayonlashadiki, ehtiyoj va motivatsiya bir-biri bilan chambarchas bog'liq: ehtiyoj insonni faoliyatga undaydi.

Boshlang'ich maktab yoshining oxiriga kelib, o'quvchilarda o'quv-biluv motivlari – nafaqat yangi bilimlarga, balki umumiy qonunlarga, yangi bilimlarni egallash usullariga qiziqish shakllantirilishi kerak. Ushbu motivni tarbiyalash o'quvchini o'rta maktabga o'tishga tayyorlash uchun zarurdir. Motivatsiyaning yangi darajalarini shakllantirish ushbu yoshda o'qishga ijobiy munosabatni rivojlantirish uchun muhim zaxiradir. Bu yoshdagi motivatsiyaning asosiy mazmuni "o'rganishni o'rganish"dir. Boshlang'ich maktab yoshi – bu o'quv motivatsiyasi shakllanishining ilk bosqichi bo'lib, kelgusi hayotiga har jihatdan bog'liq.

Darsning alohida bosqichlarida o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishning quyidagi bosqichlarini belgilash mumkin.

1. Dastlabki motivatsiyani qo'zg'atish bosqichi. Darsning ilk bosqichida o'qituvchi o'quvchilar motivatsiyasining bir nechta turlarini hisobga oladi.

2. Paydo bo'lgan motivatsiyani mustahkamlash bosqichida o'qituvchi kognitiv va ijtimoiy motivlarga e'tibor qaratadi.

3. Dars oxirida har bir o'quvchi faoliyatni ijobiy shaxsiy tajriba bilan yakunlashi, keyingi o'rganishga ijobiy munosabat paydo bo'lishi muhimdir.

O'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasi haqiqatni anglash imkonini beradigan to'liq va chuqur bilimlarni o'zlashtirishni taqozo etadi.

“Bilish jarayoni reallikda integrallashgan tavsifga ega, – deydi bu borada professor B.Xodjayev, – bilish o'qitish jarayonida, ilmiy tadqiqot jarayonida va falsafiy refleksiya jarayonida sodir bo'ladi”. Shunga ko'ra bilish nazariyasida ikki bosqich ajratiladi. Birinchisida his etish, idrok va tasavvur qilish kabi hissiy bilish aks etadi. Bilishning ikkinchi bosqichi aqliy bilish yoki mavhum tafakkur (fikrlash) hisoblanadi.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim amaliyotida o'quvchilar o'quv-biluv motivatsiyasi tarkib topishi uchun quyidagicha shart-sharoit yaratilishi taqozo qilinadi:

1. Tashkiliy o'quv-biluv motivatsiyasi: o'quv xonalarining o'quvchi ruhiyatiga ta'siri; aqliy mehnat gigienasiga rioya qilish (turli faoliyat va dam olishlarni to'g'ri uyushtirish); topshiriqlarni to'g'ri anglash va tushunish; ko'zlangan maqsadga erishish uchun zarur vositalarni tanlash; o'quv harakatlarini ta'minlashga doir shart-sharoitlarni belgilash; natijalarning samaradorligini tekshirish; vazifalarni bajarish.

2. Axborot o'quv-biluv motivatsiyasi: asarni ovoz chiqarib va ichda tez o'qish, ifodali va adabiy o'qish; asarni tinglash va idrok etish; kitob mundarijasi, tushunchalar ko'rsatikichlaridan unumli foydalanish; matnni ma'noli qismlarga ajratish va reja tuzish; kutubxonadan foydalanishni o'rganish (bibliografik yozuvlar, katologlardan foydalanish); badiiy asarlardan ko'chirmalar olish; multimedia vositalaridan foydalanish; o'rganilayotgan asarga oid rasmlar, grafik organayzerlardan foydalanish; o'quv harakatlarining aniq algoritmini tuzish; axborot beruvchi bilimni faoliyat usuliga aylantirish; natijalar optimalligini aniqlash; faoliyatning borishi va natijalari ustidan nazorat usullarini o'rnatish; xulosalar va harakat usullarining to'g'riligini nazorat qilishning turli usullarini qo'llash va hk.

3. Intellektual va nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish bilan bog'liq o'quv-biluv motivatsiyasi: o'rganayotgan asarlar ichidan yangi tushunchalarni ajratib olish; asarni tahlilga tortish, umumlashtirish, qiyoslash va baholash; xulosa qilish; yangi ma'lumotlarni chizma, jadval va diagrammalar asosida tasvirlash; atamalarni to'g'ri talaffuz qilish, yozish va qo'llay olish va boshqalar.

Kuzatishlarimizda o'qituvchilarning ko'pincha darsni “Bugun qaysi sana?”, “Mavzuni yozing”, “Asarni o'qing”, “Savollarga javob bering” kabi savol-topshiriqlar asosida tashkil etayotgani ma'lum bo'ldi. Shuning uchun maqsad belgilash, unga erishish algoritmini tuzish, o'quvchilar bilan birgalikda darsni loyihalash ishlarini olib borish muhim hisoblanadi. Holbuki, o'quvchilarda bilim olish motivatsiyasini rivojlantirish uchun o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim elementlaridan foydalanish bugungi kunning muhim talablaridandir. Boshlang'ich sinflar “O'qish” darslarida o'quvchilarning o'quv-biluv faolligini oshirish orqali mustaqil fikrlashni shakllantirish, mavzularda ilgari surilgan g'oyalarni anglab yetish, tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish

va tegishli xulosalarga kelish imkoniyati ortadi va bir vaqtning o'zida o'quv-biluv faolligining jarayonli va tashkiliy tomonlarini takomillashtirish hamda o'quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirish; ta'lim texnologiyalari yordamida o'quvchilar o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirish orqali badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning **“O'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini mustaqil ishlar vositasida shakllantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida o'quvchilarni badiiy matn ustida ishlashga o'rgatish orqali o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirish usullari; matn tahlili orqali o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirish yo'llari; sinfdan tashqari ishlar vositasida o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirish texnologiyasi xususida so'z yuritiladi.

Tadqiqot mavzusi yuzasidan olib borilgan izlanishlar davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bog'lanishli nutqi, ijodiy tafakkurini rivojlantirish va tarkib toptirishda o'qish savodxonligi darslari va darsdan tashqari mustaqil ishlar katta imkoniyatga ega. Jumladan mustaqil ishlarga doir kichik o'quv tadqiqotlari bo'yicha loyiha ishlarini tashkil etish o'quvchilarni jamoa bo'lib ishlash, o'zaro munosabatlarda faol bo'lish, shaxsiy nuqtayi nazarini mustaqil ifodalash, ijodiy izlanish bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga qiziquvchanlik masalaga tanqidiy yondashish sifatlarini qaror toptirishi bilan ham ahamiyatlidir. Izlanishlarimiz davomida o'qituvchi loyiha ishini uyushtirishda muammoning mavjudligini e'tiborga olishi, uning yechimini topishga doir o'quv tadqiqotlari olib borishni rejalashtirishi, o'quvchilarning mustaqil ishlashini ta'minlovchi yondashuvlarni belgilashi, loyiha algoritmini tuzishi va har bir bosqich natijalarini ko'rsatishi maqsadga muvofiq degan xulosaga keldik. Loyiha mavzulari o'quv dasturlaridagi asarlarga bog'liq bo'lishi yoki o'quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqib tanlanishi mumkin.

Loyiha ishini amalga oshirish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

I. Izlanish bosqichi. Bu bosqichda ta'lim subyektlarining har biri bajaradigan quyidagi vazifalar mavjud: 1. Muammoni aniqlash. 2. Loyiha mavzusini tanlash.

3. Loyiha jarayonini rejalashtirish. 4. Mavzu asosida ma'lumotlarni o'rganish va tahlilga tortishdan iborat.

II. Konstruktiv bosqichda muammoning optimal yechimlarini izlash, turli variantlarini taklif qilish, tanlash, baholash kabi faoliyat turlari olib boriladi.

III. Texnologik bosqich. Ushbu bosqichda amaliy ish rejasini tuzish, loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan jihozlardan foydalanish, turli operatsiyalarni bajarish, nazorat qilish, zarur hollarda texnologiyaga o'zgartirishlar kiritiladi.

IV. Yakuniy bosqich loyihani bajarish jarayoni, natijalarini baholash va ulardan foydalanish imkoniyatlarini baholashni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarni kichik o'quv tadqiqotlariga tayyorlovchi loyiha ishini bajarish uchun 4-klass “O'qish kitobi” darsligida “Aral taqdiri – el taqdiri” bo'limidagi quyidagi asarlar biln bog'liq motivlarni belgilashni misol qilib keltirish mumkin:

1) “Aral tenizi” hikoyasi, T.Qabulovning “Aral”, S.Ziyatovning “Anajanim – Aralim” she’rlari mazmuni bilan tanishish, ulardagi savol-topshiriqlar ustida ishlash;

2) hikoya matni ustida ishlash, Orolning ko‘l deb atalishi sabablarini aniqlash;

3) adabiyotlardan yoki sayohatlar orqali dengiz atrofidagi o‘simliklar va hayvonot dunyosining xilma-xilligini o‘rganish;

4) Orolning inson hayoti va qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati yuzasidan matn tuzish yoki rasm chizish;

5) oila a‘zolari yordamida dengiz suvi kamayishining atrof-muhitga ta‘sirini tahlil qilish;

6) jamoa holda dengizni to‘ldirishning ichki va tashqi omillarini hisobga olgan holda ekologik xarita yaratish va hk.

Mustaqil ishlar vositasida o‘quvchilarning o‘quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishda badiiy matnning o‘quvchilar hamkorlik printsiplari yoshiga mosligi printsiplari, izchillik printsiplari, ilmiylik printsiplari, o‘zaro bog‘liqlik printsiplari talablariga amal qilish ta‘lim samaradorligiga erishishning muhim shartlaridandir. Negaki shu jarayonda o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini ko‘rsatishiga tegishli shart-sharoit yaratiladi. Zero, erishilgan har bir yutuq kichik yoshdagi o‘quvchilarni yangi marralar sari ruhlantirishi tajribalardan ma‘lum.

O‘quvchilarni asar matn ustida ishlashga qiziqitira olish o‘quv fani mazmuni, o‘qilayotgan badiiy asarni tushunish, anglash va idrok etish ko‘nikmalarini shakllantirish, estetik zavq olish tuyg‘ularini kamol toptirish bilan birga o‘qishga halaqit beradigan boshqa narsalar bilan shug‘ullanishidan chalg‘itishning muhim vositasidir. Asar syujeti yuzasidan og‘zaki rasmlar chizish, qiyoslab hikoyalar tuzish, adabiy qahramonlar xarakter xususiyatlari, xatti-harakatlari, fe‘l-atvorini tavsiflash matn ustida ishlashning muhim jihatlaridandir. Badiiy matn ustida ishlash bilan bog‘liq mustaqil ishlarni amalga oshirish jarayonida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, hayotiy kuzatishlari va tajribasiga asoslanish asar mohiyatining chuqur idrok etilishi asosiy omillardan biridir. Badiiy asar matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini yanada faollashtirish, atrof-muhit, jamiyat hayotiga xos bilimlarni chuqur o‘zlashtirish, mantiqiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlantirishga ham zamin yaratiladi.

Asar matn ustida ishlashda o‘qituvchi tahlilning asosiy bosqichlari, psixologik asoslari, o‘quvchilarning o‘zlashtirish xususiyatlarini ham nazarda tutishi zarur. Tahlilga doir darslarda badiiy asarlarning mushtarak yoki farqli jihatlarini ajrata bilish; ijodkorning hayotiy voqealarni tasvirlash mahorati va obrazlarni yaratishdagi uslubini aniqlash hamda adabiy ma‘lumotlarni o‘zlashtirish asosida asar mazmuni, g‘oyasi va ahamiyatini tushunish sari qadam qo‘yadi.

Asar matn ustida ishlashda dastlab o‘quvchilar e‘tibori uning mavzusiga qaratiladi, chunki mavzu esa ko‘pincha sarlavhada aks etadi. Har xil hajmdagi matn umumiy mavzuviy yaxlitlikka ega bo‘ladi. Darslikda badiiy asarlardan

olingan har bir o'quv matnining mavzu jihatidan bir butunligi sezilib turadi. Asar matniga xos tashqi xususiyatlardan yana biri uning sarlavhasidir. Sarlavha qo'yishda asosiy mazmundan kelib chiqiladi. Asosiy mazmun ko'pincha birinchi gapda aks etadi. Shunga qaramay, matnning asosiy mazmunini ajratish ham, unga sarlavha qo'yish ham o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Sarlavhaning qo'yilishida har xillik bo'lgani kabi, turli sintaktik qurilmalar qo'llanilganligi sababli ham ularning tushunilishida muayyan darajalanish mavjudligi kuzatiladi. Demak, sarlavhaning anglanish darajasi mazmunga ko'ra paydo bo'ladigan assosiyatsiyaga chambarchas bog'liq. Bizningcha, matn ustida ishlashda o'quvchilar uning mazmunini o'qish chog'ida anglab yetishi muhim bo'lib, tahlil paytida poetik vositalarni o'rganishga keng yo'l ochiladi. Shu bois ham o'qituvchi matn ustida ishlashda bir qancha masalalarni e'tiborga olishi zarur. Jumladan:

1. Asar matni ustida ishlash tartibini rejalashtirish. 2. Tahlil bosqichlarini aniqlashtirish. 3. Savol-topshiriqlar ishlab chiqish. 4. O'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishga doir yondashuvlarni tanlash.

Tajribalarimiz davomida muammo doirasida motivatsiyaning besh darajasiga asoslanish mumkinligi asoslanildi.

1-darajali. O'quv motivatsiyasi yuqori bo'lganlar o'quvchilarda o'qituvchi tomonidan qo'yilgan barcha talablarni muvaffaqiyatli bajarish istagi mavjud.

2-daraja. Ko'pchilik o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasi yaxshi rivojlangan bo'lib, ular o'quv muammolarini muvaffaqiyatli yengishadi. Ushbu motivatsiya darajasi o'rtacha me'yor hisoblanadi.


3-daraja. Sinfidan tashqari mashg'ulotlarga jalb qilingan o'quvchilar o'quv topshiriqlariga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishadi. Ular chiroyli o'quv qurollariga ega bo'lishni yaxshi ko'radilar. Bunday bolalarda o'quv-biluv motivlari kam rivojlangan va mustaqil ishlar ularni kamroq jalb qiladi.

4-daraja. O'quv-biluv motivatsiyasi past bo'lgan o'quvchilar maktabga borishni istamaydilar va darslarni o'tkazib yuborishni afzal ko'radilar. Dars davomida ular ko'pincha begona harakatlar va o'yinlar bilan shug'ullanishadi.

5-daraja. Vazifalarga salbiy munosabatda bo'lgan o'quvchilar o'qishda jiddiy muammolarni boshdan kechiradilar: ular o'quv faoliyati bilan shug'ullana olmaydilar.

Badiiy matn ustida ishlashga oid mustaqil ishlarni uyushtirishda, avvalo, nazariy ma'lumotlar, audio, videoyozuvlar, ijodkor fotosurati yoki filmlardan lavhalar bilan tanishtirish o'quvchilarda asardan o'zlari uchun qiziqarli axborotni aniqlash va ajratib olish, sharhlash, matndan tashqari bilimlariga tayanib, tushunish va baholash kabi o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishga imkon beradi.

Yuqoridagi fikrlar asosida boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirish modeli ishlab chiqildi (1-rasm). Unda muammo doirasida maqsad qo'yish, unga erishish bo'yicha vazifalarni aniqlashtirish, ta'lim shakllari, metodlari va ko'zlangan natija o'z ifodasini topgan.



1- rasm. Adabiy ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-biluv motivatsiyasini mustaqil ishlar vositasida shakllantirish modeli

Tadqiqotning uchinchi bobi “**O‘quvchilarning o‘quv-biluv motivatsiyasini mustaqil ishlar vositasida shakllantirish bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari samaradorligi**” deb nomlanadi. Mazkur bobda tadqiqot mavzusi yuzasidan olib borilgan tajriba-sinov ishlari mazmuni hamda ularning samaradorlik darajasining matematik-statistik tahlili yoritilgan.

Tadqiqot mavzusi yuzasidan olib borilgan tajriba-sinov ishlarining birinchi aniqlashtiruvchi bosqichi 2021–2022-yillarda amalga oshirildi. Unda mavzuga doir pedagogik, psixologik, ijtimoiy-falsafiy hamda metodik adabiyotlar, jumladan, ilmiy tadqiqot ishlari o‘rganildi.

